

**RAQAMLI BANK KARTALARIDAN FOYDALANISHNING
HUQUQIY JIHATLARI**

Muzafarova Charos
muzaffarovacharos175@gmail.com
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 2-kurs –
B-potok 1-guruh talabasi.
Javoxir Eshonqulov – ilmiy rahbar
javoxireshonqulov0724@gmail.com
Toshkent davlat yuridik universiteti
Kiber huquq kafedrasи o'qituvchisi.

Annotatsiya. Raqamli bank kartalari hozirgi zamonda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda juda ham muhim hisoblanadi. Hozirgi paytda biz raqamli bank kartalaridan moliyaviy faoliyatni oson holga keltirish, xavfsizlik darajalarini oshirish va barcha uchun qulaylik yaratishda foydalanib kelmoqdamiz. Ular faqatgina shaxsiy moliyaga emas, balki global iqtisodiyotning rivojlanishida ham katta rol o'ynamoqda. Insonlar har kuni ko'plab axborotlarni qabul qilishadi. Bunga mobil telefon, internet, smartfonlarning doimiy holda o'sib borayotgan imkoniyatlari, insonlarning ijtimoiy tarmoqlarga jalb qilinishi va internet tezligining o'sishi katta yordam beradi. Internetga kishilarning hayoti bog'lanib qolishi bilan bir qatorda barcha uchun qulay bo'lgan holatlar yuzaga kelmoqda. Raqamli bank kartalari orqali uydan turgan holda hech qanday qiyinchiliklarsiz internet yordamida turli xil xaridlar qilish barcha uchun qulay. Ushbu maqolada esa raqamli bank kartalaridan foydalanishning huquqiy jihatlari, ularga taalluqli qonunlar va tartiblar, shuningdek, iste'molchilar va banklar o'rtasidagi munosabatlar ko'rib chqiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli bank kartalari, virtual kartalar, mobil ilovalar, tokenizatsiya, raqamli to'lov, online savdo, innovatsion xizmatlar, cashback, CVC.

LEGAL ASPECTS OF USING DIGITAL BANK CARDS

Annotation. Digital bank cards are now considered very important in the implementation of financial transactions. At the moment, we are using digital bank cards to make financial activities easier, increase security levels and create convenience for all. They are playing a huge role not only in personal finance, but also in the development of the global economy. People receive a lot of information every day. This is greatly facilitated by the growing capabilities of mobile phones, the internet, smartphones without a constant presence, the involvement of people in social networks and the growth of the speed of the internet. In addition to the fact that people's lives are connected to the internet, there are situations that are convenient for everyone. It is

convenient for everyone to make various purchases using the internet without any difficulties while standing from home through digital bank cards. This article covers the legal aspects of the use of digital bank cards, the laws and procedures that apply to them, as well as the relationship between consumers and banks.

Keywords: digital bank cards, virtual cards, mobile applications, tokenization, digital payment, online trading, innovative services, cashback, CVC.

ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ БАНКОВСКИХ КАРТ

Аннотация. Цифровые банковские карты в наши дни считаются гораздо более важными при совершении финансовых транзакций. В настоящее время мы используем цифровые банковские карты, чтобы упростить финансовую деятельность, повысить уровень безопасности и сделать их доступными для всех. Они играют огромную роль не только в личных финансах, но и в развитии мировой экономики. Люди ежедневно получают много информации. Этому во многом способствуют постоянно растущие возможности мобильных телефонов, интернета, смартфонов, вовлечение людей в социальные сети и рост скорости интернета. Наряду с тем, что жизнь людей привязана к интернету, возникают ситуации, когда это удобно для всех. Всем удобно совершать различные покупки в Интернете, не выходя из дома, с помощью цифровых банковских карт. Однако в этой статье будут рассмотрены правовые аспекты использования цифровых банковских карт, законы и процедуры, связанные с ними, а также отношения между потребителями и банками.

Ключевые слова: цифровые банковские карты, виртуальные карты, мобильные приложения, токенизация, цифровые платежи, онлайн-продажи, инновационные услуги, кэшбэк, CVC.

KIRISH

Raqamli bank kartalari — bu an'anaviy plastik kartalarning raqamli shakli hisoblanadi. Ular mobil ilovalar orqali boshqariladi va foydalanuvchilarga internet orqali to'lovlar amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Raqamli kartalar an'anaviy kartalarga qaraganda xavfsizroq deb ayta olamiz. Chunki tokenizatsiya orqali foydalanuvchilarning ma'lumotlari himoya qilinadi.

Tokenizatsiya — bu moliya sohasidagi kishilarning ma'lumotlarni, masalan, bank kartalari raqamlarini, boshqa identifikatorlar bilan almashtirish jarayonidir. Ushbu jarayonda asl ma'lumotlar "token" deb nomlanuvchi raqamlar yoki belgilar bilan almashtiriladi. Endi esa raqamli karta va virtual kartaning farqli jihatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, raqamli karta nomi virtual kartani ham o'z ichiga olib ketadi, desak adashmagan bo'lamiz. Lekin ularning o'ziga yarasha farqli jihatlari ham mavjud. Virtual karta faqatgina kishilarning telefonida saqanadi va internet orqali do'konlardan

kerakli narsalar xarid qilishda ishlatilishi mumkin. Uning o'ziga xos karta raqami, amal qilish muddati va CVC mavjud. Raqamli karta esa kishilarning telefonida saqlanadigan an'anaviy bank kartasining nusxasidir. Raqamli kartalar kishilarning an'anaviy bank kartasi bilan bir xil karta raqami, amal qilish muddati va CVC ga ham ega bo'lishi mumkin. Bular raqamli hamyoningizga qo'shilishi mumkin va Apple Pay yoki Google Pay yordamida ishlatilishi mumkin.¹

Yuqorida aytib o'tganimizdek, biz raqamli kartani telefonda saqlangan an'anaviy bank kartasining to'liq nusxasi deymiz. Shuning uchun raqamli kartalar mijozning an'anaviy bank kartasi ma'lumotlari bir xil ko'rinishga ega. Raqamli karta mijozlarga an'anaviy kartalarni o'rniga telefonlari yordamida xaridlarni amalga oshirishga imkon beradi, bu esa to'lov uchun telefonlarini to'lov terminaliga tekkizish yoki boshqa internet ilovalari orqali amalga oshiriladi. Hozirgi kunda deyarli barchada bank kartalari mavjud va undan foydalanish ancha keng tarqalgan. Ko'plab odamlar naqd pul o'rniga kartalarni va raqamli to'lov tizimlarini tanlashmoqda, chunki bu ancha qulay va xavfsiz.

Raqamli bank kartalari hozirgi kunda nega bunchalik dolzarblashyapti degan savolga to'xtaladigan bo'lsak, buning bir necha sabablarini aytib o'tishimiz mumkin. Ular; raqamli kartalar orqali xaridlar amalga oshirilayotganda ma'lum miqdorda vaqt tejaladi, ya'ni xaridlar tezda amalga oshirish mumkin; raqamli kartalar ikki faktorli autentifikatsiya va kodlar bilan himoyalangan bo'lib xavfsiz hisoblanadi; raqamli kartalardan foydalanganda kirim-chiqimlarni kuzatishga imkon beradi; raqamli kartalardan dunyoning istalgan joyidan xaridlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud; raqamli kartalardan xizmatlar uchun foydalanganda bonuslar yoki cashback qo'lga kiritish imkoniyati mavjudligi.²

Raqamli bank kartalaridan foydalanish qanday holatlarda muhim hisoblanadi? Masalan; online savdo vaqtida, jamoat transportidan foydalanganda va yana bir necha boshqa holatlarda.³

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, qaysi kasb egalari ko'proq raqamli kartalardan foydalanishiga oydinlik kiritib o'tamiz. Ko'roq kichik biznez egalari, ya'ni internet orqali o'z biznesini shakllantirayotgan shaxslar. Sayohatchilar, chunki chet elda naqd pul olib yurish zaruratini kamaytirish va global miqyosda foydalanish ular uchun muhim.

¹ Jonathan R. Macey, Geoferry P. Miller, Richard Scott Carnell (1992). Banking law and regulation

² Carol Coye Benson, Scott Loftness, "Payment Systems in the U.S.

³ Henri Arslanian, Fabrice Fischer, (2019) "Fintech: The Future of Finance".

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli bank kartasi ko'plab afzalliklarga egaligi haqida gapirib o'tdik. Endi esa adabiyotlarga tayangan holda chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, tadqiqiotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli bank kartalarining foydali tomonlari mijozlarni o'ziga jalgan qiladi. Ko'plab chet el adabiyotlarida raqamli bank kartasi juda ham qulayligi tufayli ommalashayotganligi haqida gapirib o'tilgan. Ya'ni, bank hisoblari endi telefonlarda mavjud bo'lishi mumkin, ya'ni mijozlar kerak bo'lganda o'z ma'lumotlariga kirishlari mumkin. Taxminlarga ko'ra, kattalarning 90% smartfonga ega, ya'ni bank ilovalari ularni qayerga bormasin olib ketishi uchun katta imkoniyat bor.⁴ Bu shuni anglatadiki, agarda oldin yuz bergen pandemiya kabi voqeа yana takrorlanadigan bo'lsa, bank mijozlari o'z moliyaviy ma'lumotlariga xohlagan vaqtida kirishlari mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, mijozlar bank filiallariga borishlari yoki bankomatlardan foydalanishlari shart bo'lmaydi, chunki ular telefonlariga mobil ilovalar orqali ulab qo'yilgan raqamli kartalari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Mazkur ilovaga asoslangan bank, barcha uchun har qanday holatlarda qulay hisoblanadi. Bundan tashqari, atrof-muhit uchun raqamli bank kartasi yaxshiroqdir, banklarga tashrif buyurish zaruratini yo'q qiladi. Buning o'rнига, mijozlar gazni tejash va uglerod chiqindilarini kamaytirish orqali o'z uylari yoki ish joylarida o'zlarining joriy hisob raqamlariga kirishlari mumkin. Bundan tashqari, jismoniy kartalarni ishlab chiqarish jarayonini olib tashlash ekologik toza va barqaror bo'lishning ajoyib usuli hisoblanadi.⁵

Raqamli bank kartalardan foydalanishning kamchiliklari ham bor. Masalan; raqamli kartalardan naqd pul olish hamma joyda ham mumkin emas: hamma bankomatlar kontaktsiz texnologiyalar bilan jihozlanmagan. Virtual kartalar uchun ushbu parametr qonuniy cheklovlar tufayli to'liq mavjud emas. Savdo nuqtalarida kontaktsiz pos-terminalarning tarqalishi past bo'lgan xorijiy mamlakatlarda xaridlarni to'lashda qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin.⁶

Rossiyada "Ekolin" kompaniyasi director o'rinosi Yelena Vishnyakova "Bank kartalarini yo'q qilishda juda ko'p qiyinchiliklar mavjud — PVX 200 °C ga qizdirilganda u dioksinlar, qo'rg'oshin, simob, kadmiy, ftalatlarni chiqara boshlaydi. Endi ushbu turdag'i mahsulotlarni qayta ishlash faqat PVXni boshqa plastmassalarga aralashtirish orqali mumkin. Rossiyada bunday ishlab chiqaruvchilar hali ham kam va bu sxemani barqaror deb hisoblash mumkin emas", dedi.⁷

⁴ <https://trends.rbc.ru/trends/industry/cmrm/6718fc759a79475997e021c8>

⁵ <https://cartaworldwide.com/blog/fintech/the-rise-of-digital-bank-cards/>

⁶ <https://n26.com/en-eu/virtual-card>

⁷ <https://www.infosys.com/services/digital-interaction/documents/future-digital-payments.pdf>

Uning fikriga ko'ra, plastik kartalarni raqamli analog bilan ommaviy ravishda almashtirish qayta ishlanmaydigan chiqindilar miqdorini kamaytiradi va ularni ishlab chiqarish uchun asosiy resurslarni tejaydi. "Bu chiqindilar paydo bo'lishining oldini olish, keraksiz narsalardan voz kechish — chiqindilarni boshqarishning eng to'g'ri va samarali usuli", deb ta'kidlaydi Vishnyakova.⁸

"Plastik tashuvchisiz kartalar bizning kundalik hisob-kitoblarimizning kelajagidir. Jismoniy vositaning yo'qligi kartaning xususiyatlariga hech qanday ta'sir qilmaydi, lekin uni ro'yxatdan o'tkazish va olish vaqtini qisqartiradi. Kontaktsiz to'lovlarning rivojlanishi bilan klassik bank kartasi asta — sekin fonga o'tadi va o'z ahamiyatini yo'qotadi", - deydi Sberbankning "Mijozning hamyonii" bo'limi direktori vazifasini bajaruvchi Igor Kovalev. Plastmassasiz kartalarning mashhurligi QIWI-da ham qayd etilgan. Protopopovning so'zlariga ko'ra, agar 2019 yilning ikkinchi choragida foydalanuvchilar virtual kartadan foydalangan holda o'rtacha 11 ta operatsiyani amalga oshirgan bo'lsa, 2020 yilda mijoz shu davrda 19 ta operatsiyani amalga oshirgan. Virtual kartalar esa Moskva va mintaqada, shuningdek Sankt-Peterburgda eng faol ishlataladi.⁹ Yuqoridagi fikrlardan shu xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bank kartalarining raqamlashtirilgan tizimda bo'lishi bu tabiat va ekologiya uchun juda muhim hisoblanib, bank kartasini yo'q qilish mobaynida chiqariladigan zaharli moddalarni tabiatga chiqarilishini oldini oladi.

Huquqiy Asoslar

Bank kartalaridan samarli foydalanish, bular orqali o'z maqsadlaringizga erishishingiz uchun turli xil qonunlar ishlab chiqilgan va davlatlar tomonidan tartibga solingen. Raqamli bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq qonunlar va tartiblar har bir mamlakatda o'ziga xosdir. Odatda, bu qonunlar moliyaviy institutlar, iste'molchilar va davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun ishlab chiqiladi. Chet el qonunlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak,

Rossiya davlatida raqamli bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq bir qancha qonunlar va normativ-huquqiy hujjalarni mavjud. Ularga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin; Rossyaning «О банках и банковской деятельности» (Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi), qonuni va «Об уполномоченном по правам потребителей финансовых услуг» (Moliyaviy xizmatlar bo'yicha iste'molchilar huquqlari to'g'risidagi) qonuni bank kartalari va to'lov tizimlarining ishlashini tartibga soladi.¹⁰ Bundan tashqari, **Markaziy bank normativlari** ya'ni Rossiya Markaziy banki tomonidan belgilangan qoidalar va regulativlar raqamli bank kartalari va ularning

⁸<https://www.infosys.com/services/digital-interaction/documents/future-digital-payments.pdf>

⁹ Инструкция Банка России от 29.11.2019 N 199-И (2024).

¹⁰ Инструкция Банка России от 29.11.2019 N 199-И (2024).

ishlashi, xavfsizligi va foydalanuvchilarning huquqlarini himoya qilishni tartibga soladi

Endi o'zimizni mamlakatimizda ya'ni O'zbekiston Respublikasida ham ushbu sohadagi bir qancha qonunlarni ko'rib chiqamiz. Ular; "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun, asosan bank tizimini, bank xizmatlarini va bank kartalarini tartibga soladi.¹¹ "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonun esa to'lov tizimlarini, bank kartalarini ishlatish va boshqarish qoidalarini belgilaydi.¹² Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan chiqarilgan qoidalar bank kartalari, ularning xavfsizligini tartibga soladi.

«O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi hamda «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi qonunlarga muvofiq Markaziy bank boshqaruvi tomonidan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari to'g'risidagi nizom tasdiqlandi Nizomda belgilanishicha, bank kartasi saqlovchisining ruxsatsiz boshqa shaxs bank kartasidan foydalanishi mumkin emas. U bankning – karta emitentining mulki hisoblanadi. Karta qalbakilashtirishdan va undan noqonuniy foydalanishning boshqa turlaridan himoya qilinishi zarur. Bank kartasining amal qilish muddati karta saqlovchisi va emitent o'rtasida tuzilgan shartnomaga yoki bank kartalari vositasida naqd pulsiz hisobkitoblar amalga oshiriladigan to'lov tizimi hamda banklararo to'lov tizimi operatorlari tomonidan o'rnatilgan qoidalarga muvofiq belgilanadi¹³. Ushbu qonunlar raqamli bank kartalaridan foydalanish jarayonini tartibga solish, iste'molchilarni himoya qilish va moliyaviy xizmatlarni samarali taqdim etish uchun muhimdir.

Qonunchilikka taklif.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining O'zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qaror qabul qilgan va O'zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari to'g'risida Nizom ishlab chiqilgan. Ushbu nizomdagagi bir nechta normalariga o'zgartirilishlar kiritilganda ancha maqsadga muvofiq bo'lган bo'lardi deb aytolamiz. Ushbu Nizomning 6-bobida "Bank kartasi saqlovchisining huquq va majburiyatları" belgilangan. 6-bobning 17-qismida karta saqlovchisining majburiyatları qatoriga e'tiborimizni qaratamiz.

Amaldagi tahrir:

17. Bank kartasining saqlovchisi quyidagilarga amal qilishi shart:

¹¹ "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun. 05.11.2019

¹² "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonun. 01.11.2019

¹³ Bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishining yangi tartibi. 09.04.2021.(ro'yxat raqami 3294, 3.04.2021 y.)

shartnoma shartlari, bank kartasidan foydalanish qoida va talablariga amal qilish; to‘lov tizimi operatori tomonidan o‘rnatilgan bank kartasidan foydalanish qoida va tartiblariga rioya etish.¹⁴

Yangi tahrir:

17. Bank kartasining saqlovchisi quyidagilarga amal qilishi shart:

shartnoma shartlari, bank kartasidan foydalanish va raqamli bank kartasidan emitentning mobil ilovasi orqali foydalangan holda qoida va talablariga amal qilish; to‘lov tizimi operatori tomonidan o‘rnatilgan bank kartasidan foydalanish qoida va tartiblariga rioya etish.

Ko‘rib turganingizdek, normaga o‘zgartirish kritildi. Chunki hozirgi paytda raqamli bank kartasi yuqorida aytib o‘tganimizdek deyarli barchada bor va o‘z mobil qurilmalari orqali foydalanib kelinmoqda. Bank kartasi o‘z emitenti yangi kartani qaysi bankdan olgan bo‘lsa, o’sha bank mobil ilovasinidan foydalanish majburiyatini karta foydalanuvchisiga yuklayapti.

Ushbu Nizomning 5-bobiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, unda ”Emitentning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi” belgilangan. 5-bob 12-qismda esa “Bank kartasi emitenti amal qilishi shart bo’lgan majburiyatlar”i berilgan.

Amaldagi tahrir;

12. Bank kartasining emitenti quyidagilarga amal qilishi shart:

bank kartasini olish uchun murojaat qilgan shaxsning arizasini ko‘rib chiqish;

bank kartasini saqlovchisini bank kartasi yo‘qolganligi va (yoki) bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi to‘g‘risidagi xabarnomani tunu kun yuborish imkoniyati bilan ta’minalash;

bank kartasi emitenti va saqlovchisi o‘rtasida tuzilgan shartnomada o‘rnatilgan tartibga asosan bank kartasini berish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha emitent tariflarining o‘zgarganligi hamda bank kartasini amal qilish muddatidan avval to‘xtatish to‘g‘risida bank kartasi saqlovchilarini xabardor qilish;

karta hisobvarag‘i yopilganda, keyingi operatsiya kunidan kechiktirilmagan holda karta hisobvarag‘ida mavjud pul mablag‘larini mijozga berish;

bank kartalari orqali o‘tkazilgan operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri amalga oshirish.¹⁵

Yangi tahrir;

12. Bank kartasining emitenti quyidagilarga amal qilishi shart:

bank kartasini olish uchun murojaat qilgan shaxsning arizasini ko‘rib chiqish;

bank kartasini saqlovchisini bank kartasi yo‘qolganligi va (yoki) bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi to‘g‘risidagi xabarnomani tunu kun yuborish imkoniyati

¹⁴ Bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo‘lishining yangi tartibi. 09.04.2021

¹⁵ Bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo‘lishining yangi tartibi. 09.04.2021

bilan ta'minlash;

bank kartasi emitenti va saqlovchisi o'rtasida tuzilgan shartnomada o'rnatilgan tartibga asosan bank kartasini berish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha emitent tariflarining o'zgarganligi hamda bank kartasini amal qilish muddatidan avval to'xtatish to'g'risida bank kartasi saqlovchilarini xabardor qilish;

karta hisobvarag'i yopilganda, keyingi operatsiya kundan kechiktirilmagan holda karta hisobvarag'ida mavjud pul mablag'larini mijozga berish;

bank kartalari orqali o'tkazilgan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirish;

bank kartasi saqlovchisidan emitentning o'z mobil ilovasidan foydalanishni talab qilish.

Yuqoridagi yangi tahrirda bank kartasi saqlovchisiga majburiyat yuklagandik, ya'ni raqamli bank kartalaridan foydalanganda, emitent bankning mobil ilovasidan foydalanish to'g'risida. Endi bu bobda esa emitent o'z mobil ilovasidan foydalanishni talab qilishga haqli deb aytib o'tyapmiz.

Bunday normalarning kiritilishini asosiy sabablari bor, albatta. Bank kartangizni olgan bankning mobil ilovasidan foydalanish bir qancha afzallikkarga ega. Ularning asosiylari quyidagilar; ushbu ilova orqali mijoz bemalol o'z kartasini bloklay oladi; ushbu ilova orqali bank bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lanish imkoniyati mavjud bo'ladi; o'z bankining ilovasidan foydalangan mijoz karta uchun yaratilgan maxsus chegirma va cashback takliflariga birinchilardan bo'lib foydalanadi. Bundan tashqari, boshqa mobil ilovalar ishonchsiz bo'lishi mumkin. Bu normalar orqali esa sizning bank kartangiz ishonchli qo'llarda bo'ladi.

XULOSA

Har bir virtual karta asosiy parametrlarga ega: raqam, amal qilish muddati, foydalanuvchi nomi, uch xonali CVV2 yoki CVC2 kodi. O'zbekistonda virtual kartalar Humo to'lov tizimi tomonidan summada chiqariladi, shuningdek, Visa yoki MasterCard xalqaro to'lov tizimlari tomonidan dollarlarda chiqariladi. Virtual kartalar banklarning mobil ilovasida rasmiylashtiriladi, bundan tashqari, bugungi kunda PAYME va CLICK to'lov tizimlari ba'zi banklar bilan hamkorlikda ushbu ilovalarda virtual kartalarni ochish imkoniyatini beradi. Bunday kartalar uchun hisobdag'i summa odatda chegara bilan cheklanadi. Shuning uchun kartadan onlayn to'lovlар va xaridlar uchun foydalanish xavfsizdir: siz asosiy kartadan ma'lum miqdorni raqamli kartaga o'tkazasiz va mahsulot yoki xizmat uchun pul to'laysiz.¹⁶

Xavfsizlik raqamli kartalarning asosiy plyusidir. Siz onlayn to'lovlarda bank ma'lumotlarini ishonchsiz joyda "qoldirish" xavfini minimallashtirasiz. Masalan, siz

¹⁶<https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-bank-xizmatlari-va-uning-afzallikkari/viewer>

kartada onlayn xarid qilish uchun yetarli chegarani o'rnatdingiz va ehtimol undan ham kamroq. Shunday qilib, siz rejalashtirilganidan ko'proq pul sarflamaysiz va agar firibgarlar virtual kartadan pulni hisobdan chiqarishga harakat qilsalar, ular asosiy hisob raqamiga kira olmaydilar. Raqamdan pul "olib qo'yilgan" bo'lsa ham, ular buni faqat kichik chegaralar ichida amalga oshirishlari mumkin. Onlayn to'lovlarni yanada xavfsizroq qilish uchun turli xil xaridlar uchun bir nechta virtual kartalarini chiqaring. Bundan tashqari, virtual karta bilan notanish odamlardan pul o'tkazmalarini olish ham ancha ishonchli. Ko'p qirrali har qanday bank kartasi singari, virtual karta ham xalqaro to'lov tizimlari tufayli butun dunyo bo'ylab tovarlar va xizmatlar uchun onlayn to'lovlarni amalga oshirishga yordam beradi. Bu onlayn hamyonlar bilan xarid qilish ancha qulayroqdir, ular orqali to'lovlar hamma joyda o'tmaydi. Kelajakda yangi texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan raqamli bank kartalarining huquqiy jihatlari yanada dolzarblashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://trends.rbc.ru/trends/industry/cmrm/6718fc759a79475997e021c8>
2. <https://cartaworldwide.com/blog/fintech/the-rise-of-digital-bank-cards/>
3. <https://n26.com/en-eu/virtual-card>
4. <https://depozit.uz/ru/news/virtual-kartalar-nima-uchun-kerak-va-qaysi-banklarda-rasmiylashtirish-mumkin>
5. <https://www.linkedin.com/pulse/future-banking-digital-payments-2024-webpays-vg3df>
6. <https://www.infosys.com/services/digital-interaction/documents/future-digital-payments.pdf>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-bank-xizmatlari-va-uning-afzalliklari/viewer>
8. Jonathan R. Macey, Geoferry P. Miller, Richard Scott Carnell (1992). Banking law and regulation
9. Paul M. Schwartz, Karl Nikolaus Peifer (2017), The Law of Electronic Payments, (178).
10. Инструкция Банка России от 29.11.2019 N 199-И (2024).
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruving qarori. O'zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 03.04.2021
12. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun. 05.11.2019
13. "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonun. 01.11.2019
14. "Iste'molchilar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi qonun. 18.01.2022
15. Bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishining yangi tartibi. 09.04.2021
16. Javohir Eshonkulov "Legal Foundations for the Application of Artificial Intelligence Technologies in the Sports Industry" American Journal of Education Evaluation Studies Tom 1, No 7, 2024/10/04, 240-247
17. Eshonkulov, Javohir "SUV RESURSLARINI MUHOFAZA QILISH YO'LIDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIK TAHLILI". Центральноазиатский журнал образования и инноваций 2.11 Part 3 (2023): 47-52.
18. Usmonova Sabina Voxidovna "Huquqiy risklarni baholashda big data texnologiyasidan foydalanish". Modern science and research UIF:8.1. 2181-3906. 2024. 3-5.